Yakubov Faxriddin Jo‘raqulovich (Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi; e-mail: yakubovf57@gmail.com)

DISKURS KOGNITIV TAHLILINING KONTEKSTUAL ASPEKTI

Annotatsiya. *Maqolada diskursning kognitiv tahliliga zamonaviy yondashuv yoritiladi. Muallif diskursni faqat matn strukturalari bilan cheklab bo‘lmasligini, balki uni butun va integratsiyalashgan kontekstda ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlaydi. Diskurs tahlilida kontekstning asosiy komponentlari – vaqt, o‘rin, voqea, ishtirokchilar, ularning rollari va o‘zaro munosabatlari, faoliyat sohasi hamda ijtimoiy va kognitiv omillar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *duskurs, kognitiv, matn tahlil, kontekstual tahlil, freym, sxema, komponent, kommunikativ rollar, konsepsiya, kategoriya.*

Якубов Фахриддин Джуракулович (преподаватель Каттакурганского филиала Самаркандского государственнего университета; e-mail: yakubovf57@gmail.com)

КОНТЕКСТУАЛЬНЫЙ АСПЕКТ КОГНИТИВНОГО АНАЛИЗА ДИСКУРСА

Аннотация*. В статье освещается современный подход к когнитивному анализу дискурса. Автор подчеркивает, что дискурс нельзя ограничивать только текстовыми структурами, его необходимо рассматривать в целом и в интегрированном контексте. В анализе дискурса рассматриваются основные компоненты контекста – время, место, событие, участники, их роли и взаимные отношения, сфера деятельности, а также социальные и когнитивные факторы.*

Ключевые слова: *дискурс, когнитивный, текстовый анализ, контекстуальный анализ, фрейм, схема, компонент, коммуникативные роли, концепт, категория.*

Yakubov Fakhriddin Jurakulovich (Teacher of Kattakurgan branch of Samarkand State University; e-mail: yakubovf57@gmail.com)

CONTEXTUAL ASPECT OF COGNITIVE DISCOURSE ANALYSIS

Annotation. *The article highlights a modern approach to the cognitive analysis of discourse. The author emphasizes that discourse cannot be limited to just textual structures; rather, it should be viewed as a whole and in an integrated context. In discourse analysis, key contextual components such as time, place, event, participants, their roles and interactions, field of activity, as well as social and cognitive factors are examined.*

Keywords: *discourse, cognitive, text analysis, contextual analysis, frame, schema, component, communicative roles, concept, category.*

Kirish (Introduction). Diskurs kognitiv tahlilini matn strukturalari bilan cheklash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Diskursga butun, integratsiyalashgan yondashuv pozitsiyasidan qarash kerak. Shuning uchun matn va kontekst o‘rtasidagi mavjud aloqalarning bir qancha aspektlarini ko‘rib chiqamiz.

Kontekstual tahlilning turli kategoriyalari turlicha yondashuvlarni taklif etmoqda. Ularning ko‘pchiligi hol (settings): *zamon (time), o‘rin (location), voqea/harakat (event/action), qatnashchilar (participants).* Shubhasiz, bu kategoriyalar to‘liq aloqador (relevant) kategoriyalar, lekin har tomonlama tahlillar yanada ahamiyatli bo‘lgan bir qancha kategoriyalar borligini ko‘rsatadi [1;37-b.]. Bular orasida *faoliyat sohasi (domain), diskurs ishtirokchilari roli (roles), ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlar (social relations).*

Faoliyat sohasi kategoriyasini ko‘rib chiqamiz. Kishilar, muloqot ishtirokchilari qaysi sohada yoki joyda diskurs ro‘y berayotganligini bilishlari kerak. Masalan, parlamentdagi siyosatchilar anglashadiki, ularning diskursi siyosat sohasida (siyosiy diskurs), o‘qituvchilar tushunishadiki, ularning professional faoliyati ta’lim sohasiga tegishli (pedagogik diskurs). Bu bildiradiki, o‘qituvchilar ham, siyosatchilar ham o‘z faoliyati sohasiga muvofiq til vositalarini tanlaydilar. Eng umumiyroq darajada biz *formal / ommaviy, ijtimoiy (public sphere)* va *neformal / shaxsiy sohalar (private sphere)* haqida gapirishimiz mumkin [1;11-b.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Kontekstual tahlilning murakkab tizimidagi keyingi qadam T.A. van Deykning fikricha, diskurs yaratilishi jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy subyektlar (social actors) va ma’lum ijtimoiy guruhlarning a’zolari deb tan olish zarurligidir [1;26-b.].

Ular muloqotning o‘ziga eng yaqin joylashgan sotsium vakillaridir, chunki aynan ular matnlarni yaratadilar va talqin qiladilar. Bu ijtimoiy subyektlarning faoliyati, ularning ijtimoiy-madaniy faolligi, e’tiqodlar umumiyligi yoki mafkura diskurs matnlarini ularni yaratish va iste’mol qilish jarayonlari bilan solishtirishga, moslashtirishga imkon beradi. Diskurs matnlari va kontekstlar o‘rtasidagi aloqa bu matnlarga ishlov berish jarayoniga qo‘shilgan ijtimoiy faoliyat va ijtimoiy bilimlar darajasida aniqlanadi [1;42-b.].

Ma'lumki, muloqot ishtirokchilari har xil rollarda chiqishlari mumkin, bu rollar diskursni yaratish va tushunishga ta'sir qilishi mumkin.

T.A. van Deyk fikriga ko'ra, uch turdagi rollarga murojaat qilish to'g'ridir: *kommunikativ rollarga* (communicative roles), *o'zaro harakat qilish rollariga* (interactional roles) va *ijtimoiy rollarga* (social roles). Muloqot ishtirokchilari o'zlarini va boshqa ishtirokchilarni xabarni beruvchilar va oluvchilar bilan o'z kommunikativ rollarini anglash uchun bog'lashlari lozim. O'zaro ta'sir rollarini qatnashchilarning bir-biriga munosabatlaridagi *dushman – do'st, raqib – ittifoqchi* qabilidagi turli situatsiyali pozitsiyalari aniqlaydi.

Ijtimoiy rollar u yoki bu boshqa ijtimoiy guruhga etnik, jinsiy, yosh, siyosiy jihatdan, professional va boshqa belgilariga ko'ra qarashli ekanligi bilan bog'langan. Bu rollar bir-biri bilan qo'shilib ketadi. Aytaylik, deputat parlamentda nutq so'zlashi mumkin, bir vaqtning o'zida, u hukumat muxolifi, buning ustiga ayol kishi bo'lishi, konservativ partiyaning a'zosi bo'lishi mumkin va hokazo [1;91-b.].

Kontekstning eng muhim kategoriyasi *muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlardir*. Eng umumiy darajada formal/formal bo'lmagan munosabatlar yoki eng batafsil ko'rib chiqilganda hokimiyat ustunligi haqida gapirish mumkin. Bu ko'p nutq aspektlarida ifodalanishi mumkin: *intonatsiya, sintaksis, leksika, semantika, pragmatikada* (masalan, buyruq berishlarda) va hokazo [1;43-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Diskurs kognitiv tahlilining kontekstual aspektiba bag'ishlangan mazkur maqolada analiz, sintez, analogik tahlil kabi metodlardan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shunday qilib, holat, faoliyat sohalari kontekstual kategoriyalari, ishtirokchilar rollari va ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir turlarida ma'lum darajada matnning o'zi aniqlanishini bildik. Biroq kontekst strukturasi faqat bu kategoriyalar bilan cheklanmaydi. Shuningdek, kontekstga ishtirokchilarning ba'zi kognitiv xarakteristikalari, masalan, *ularning maqsadi, e'tiqodlari, fikrlari* kabi xarakteristikalari ham tegishli. Ishtirokchilarning kognitiv xarakteristikalari ularning ijtimoiy qiyofasining muhim komponenti hisoblanadi.

Bu aspektni hisobga olmasdan biz ishontirish, axborot uzatish jarayonlarini, mafkurani ifodalash usullarini tushuntira olmaymiz yoki tavsiflay olmaymiz [3;19-b.].

Agar bu aspektni e'tiborga olmasak, nega kishilar u yoki bu harakatni amalga oshirayotganliklarini tushuna olmaymiz. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, muloqotning kognitiv aspekti kontekstual tahlilda `muhim va katta rol o'ynaydi.

T.A. van Deyk diskursning kognitiv xarakteristikalari o'rtasida *mafkura, bilimlar, munosabatlarni* kognitiv qiyofani tashkil etuvchi eng muhim xarakteristikalar deb hisoblaydi. Mafkura ma'lum bir g'oyalarda ifodalanadi, ularni e'tiqodlar tizimi deb atash mumkin. Ta'kidlash kerakki, shaxsiy e'tiqodlar bilan emas, ma'lum bir ijtimoiy guruhning e'tiqodi bilan ish ko'ramiz. *E'tiqodlar asosida ma'lum bir mafkura yotadi*. Masalan, jinsiy zo'ravonlik e'tiqodlari asosida feministik mafkura yotadi. Mafkura ma'lum bir darajada guruhdagi *bilimlarni* ham nazorat qiladi. Biz qandaydir ijtimoiy guruhlar doirasida haqiqat deb hisoblangan, masalan, bu olimlar guruhi yoki diniy jamoa a'zolari tomonidan haqiqat deb hisoblangan bilimlar bo'lsa, ularga ijtimoiy e'tiqodlar sifatida qaraymiz. Albatta, boshqa guruhlar uchun bu bilimlar haqiqat hisoblanmasligi mumkin, shu sababdan *bilimlar* atamasi bu tushunchaga juda shartli qo'llangan [1;91-b.].

"Munosabatlar" atamasi qandaydir konkret obyektga nisbatan e'tiqodlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Kishilar jamiyatdagi mavjud u yoki boshqa masalalarga, muammolarga, masalan, evtanaziyaga, narkotiklarga, o'lim jazosiga va hokazolarga turli munosabatda bo'lishlari mumkin. Munosabatlar bilimlar bilan o'zaro shartlangan bo'ladi hamda mafkuraga bog'liq bo'lishi mumkin, aytaylik, immigratsiyaga salbiy munosabat irqchilik mafkurasiga asoslanishi mumkin. Ishtirokchilarning kognitiv qiyofasini tarkib toptiruvchi bu barcha elementlar "bilimlar" degan umumiy atama bilan ifodalash imkoniyatini beradi [1;68-b.].

Bu "bilimlar" degan umumiy so'z amorf emas, u konseptual tizimlarda tashkil topgan [1;372-b.]. T.A. van Deyk bu sxemalarni *freym* termini bilan tavsiflashga moyil. "Freym" tushunchasi asosan sun'iy intellekt va kognitiv psixologiya bo'yicha ishlarda ishlatilmoqda. Bu variantlari "skriptlar", stsenariyalar", sxemalar" nomlari ostida muhokama qilingan tushuncha. Bunday vazifalarni yechish uchun zarur bilimlarni namoyon qilish tadqiqotlari sohasida oldingi tadqiqotchi F.Bartlett edi. U o'zi ham "sxema" atamasini qo'llagan. R.Schank, va R.Abelson ishlarida ham sun'iy intellekt bo'yicha tadqiqotlarda uchraydigan o'xshash tushunchalar muhokamasini topish mumkin.

T.A. van Deyk yozishicha, freymlar bilimlarning asossiz ajratilgan "bo'laklari" emas. Birinchidan, ular ba'zi konseptlar atrofida tashkil topgan birliklardir. Lekin assosiatsiyalarning oddiy to'plamiga qarama-qarshi ravishda bu birliklar u yoki boshqa konsept bilan birikadigan tipik va potensial mumkin bo'lgan axborotni o'zida jamlaydi. Bundan tashqari, freymlar ko'proq yoki kamroq darajada konvensional tabiatga

egaligini istisno qilib bo‘lmaydi, shuning uchun bu jamiyatda nima “xarakterli” yoki “tipik” ekanligini aniqlashi va tavsiflashi mumkin. Bu, ayniqsa, “poezdda safar, kinoteatrga borish, restoranda tushlik qilish” kabi ijtimoiy faoliyatning bir qancha shakllariga tegishli bo‘lishi mumkin [2;23-b.].

Tilshunoslik ensiklopedik lug‘at freymlarga “типовые ситуации” (oddiy situatsiyalar) deb ta’rif beradi [4;102-b.].

Stereotip, qandaydir madaniyatda mavjud ijtimoiy situatsiyalar xotirada shunday shaklda berilishi mumkinki, kishilar bu umumiy bilim asosida muloqot qilishlari mumkin. Bunday freymlar nisbatan doimiydir, chunki ular sotsium a’zolari tomonidan tez-tez ishlatiladi. Agar bizning madaniyatimiz freymida supermarket bo‘lsa, deb misol keltiradi T.A. van Deyk, unda bu freym bizning rejalarimiz va harakatlarimizni supermarketga yo‘naltiradi yoki u yerda nima sodir bo‘layotganligini tushunishga yo‘naltiradi [1;71-b.]. Diskursni tushunish o‘ziga, taxminan, *freymning umumiy mazmunini* oladi; bu mazmun shunday anglanishi mumkin, masalan, supermarketda turli xildagi oziq-ovqat va sanoat mollarini xarid qilish mumkin, u yerda xarid uchun maxsus aravachalar bor, ularda tovarlarni joylab, keyin kassir oldida to‘lov qilish mumkinligi haqida ma’lumot bilan qanday sodir bo‘layotganligi qisman anglanishi mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Diskursning matn tahlili fonetik, grafik, morfologik, sintaktik, semantik, leksik, makrostruktura darajalaridagi til strukturalarini ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi. Diskursning kontekstual tahlili esa vaqt, o‘rin, faoliyat sohalari, diskurs ishtirokchilari, ularning ijtimoiy rollari, ularning o‘zaro munosabatlarining xarakteri va diskurs ishtirokchilarining kognitiv xarakteristikalarini ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Dijk T.A van. Political Discourse and Ideology [электронный ресурс]. 2001, 312 p.

(2). Дейк Т.А. Ван. Вопросы прагматики текста. Новое в зарубежной лингвистике. М., “Прогресс”, 1978, с. 259–336.

(3). Дейк Т.А. Ван. Язык. Познание. Коммуникация. М., “Прогресс”, 1989, 312 с.

(4). Лингвистический энциклопедический словарь. Гл. ред. В.Н.Ярцева. М., “Советская энциклопедия”, 1990, 685 с.

Irisovna Sayida Abdiyeva (TATU “Chet tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi)

MIQDOR MA’NOSINI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING SO‘Z TURKUMLARI VA TIL TIZIMIDAGI O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada miqdor ma’nosini ifodalovchi birliklarning so‘z turkumlari bilan bog‘liqligi va ularning til tizimidagi o‘rni o‘rganiladi. Miqdor tushunchasining leksik-semantik va grammatik jihatlari tahlil qilinib, ularning sintaktik, semantik va pragmatik vazifalari yoritiladi. Shuningdek, miqdor birliklarining turli so‘z turkumlarida qanday namoyon bo‘lishi misollar asosida ochib beriladi. Ushbu tadqiqot natijalari miqdor ifodalovchi birliklarning til tizimidagi o‘rnini chuqurroq tushunishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *miqdor birliklari, so‘z turkumlari, son, sifat, olmosh, fe’l, til tizimi, sintaktik rol, semantik xususiyatlar, pragmatik vazifa.*

ЧАСТИ РЕЧИ, ВЫРАЖАЮЩИЕ КОЛИЧЕСТВЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ, И ИХ РОЛЬ В ЯЗЫКОВОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация. *В данной статье рассматривается взаимосвязь единиц, выражающих значение количества, с группами слов и их место в системе языка. Анализируются лексико-семантический и грамматический аспекты понятия количества, выделяются их синтаксическая, семантическая и прагматическая функции. Также на основе примеров будет раскрыто, как появляются единицы ко-личества в разных группах слов. Результаты данного исследования помогают лучше понять место количественных единиц в системе языка.*

Ключевые слова: *единицы количества, группы слов, число, качество, местоимение, глагол, языковая система, синтаксическая роль, семантические признаки, прагматическая задача.*

WORD CLASSES EXPRESSING THE QUANTITY MEANING AND THEIR ROLE IN THE LANGUAGE SYSTEM

Annotation. *This article examines the relationship of units expressing the meaning of quantity with word groups and their place in the language system. The lexical-semantic and grammatical aspects of the concept of quantity are analyzed, and their syntactic, semantic and pragmatic functions are highlighted.*